

**TA'LIMIY O'YINLAR MTT VA OILA HAMKORLIGINI MUSTAHKAMLASH  
VOSITASI SIFATIDA**

**Sherqulova Setora**

**Yoqubova Halima**

**Abdurahmonova Moxina**

Nizomiy nomli TDPU Maktabgacha ta'lif  
pedagogikasi va psixologiyasi kafedra talabalari

Maktabgacha ta'lif tashkilotlari faoliyatining mazmunini belgilab bergan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturida ta'kidlanganidek, o'yin maktabgacha bo'lgan ta'lif va tarbiya jarayonining asosiy shakli, "o'quv-tarbiyaviy faoliyat uchun asos hisoblanadi". U maktab ta'limining boshlang'ich sinflarida ham yetakchi mavqe tutgani holda o'rta va yuqori sinflarda turli shakl hamda darajalarda mavzular mohiyatini singdirishning samarali vositasi o'larоq qо'llanadi. Bizningcha, yuqoridagilarga qо'shimcha ravishda o'yinni oilalarda farzandlarning o'quv mashg'ulotlarini o'zlashtirish sifati, ularni qay darajada eslab qolayotgani hamda MTTlarda mashg'ulotlarning samarasini kuzatish, tekshirish va aniqlashning bir vositasi o'larоq talqin qilish mumkin. Ayni paytda oilalarda bog'chalarda berilayotgan bilimlar, shakllantirilayotgan ko'nikmalarga ne qadar e'tibor berilayotgani, oila muhitida ularni mustahkamlashga qanchalik diqqat qilinayotganini bilish uchun ham qо'l kelishini ta'kidlash o'rini.

O'yin zavqlanish, qiziqarli vaqt o'tkazish uchun ketma-ketlikda amalga oshirilgan harakatlardir. O'yin bolalarni qiziqtirish, ularning aqliy va jismoniy rivojlanishlarini tezlashtirishda beqiyos vosita sanaladi. Ta'lif o'yin bilan uyg'unlashganda bola dunyosi va tabiatiga to'g'ridan-to'g'ri kirib boriladi. Ta'limsiz o'yin bo'lmaganidek, o'yinsiz ta'lif ham bo'lmaydi. Muhimi, Disterveg Adolf aytganidek, o'yin orqali bolalarga "haqiqatni topish o'rgatiladi".

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif va boshlang'ich sinflarda tarbiyalanuvchilar nutqiy malakasini rivojlantirish, shuningdek, ta'lif boshqa tilda olib boriladigan maktablarning boshlang'ich va o'rta sinflarida o'zbek tilini o'qitish, davlat tilida ravon so'zlashga o'rgatishda amaliyotda sinalib, yuqori samaraga ega bo'lgan ayrim o'yin shakllarini havola etamiz. Bu shakllar ayni paytda oilalarda farzandlar bilan ishslashning, MTTlarda o'tkazilgan mashg'ulotlarning oila muhitida takrorlash, mustahkamlashning o'ziga xos vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Avvalo shuki, mashg'ulotlarda tarbiyachi (oiladagi kattalar: ona, ota, buvi, buva, opa yoki aka) o'yinni tanlashda mashg'ulot mavzusiga, tarbiyalanuvchilarning qiziqishi va saviyalariga e'tibor berishi kerak. Mavzuga aloqasi bo'lmagan, qiziqish uyg'otmagan o'yindan bolalar zerikadi. Natijada mashg'ulot nomigagina o'tkaziladi.

Mashg'ulotlar o'yin shaklida o'tkazilganda tarbiyalanuvchilarning imkoniyatlari, o'ziga xos qobiliyatları yuzaga chиqa boshlaydi. Hatto nutqida muayyan kamchilik yoki yetishmovchilik bo'lgan bolalar o'yin davomida o'zlaridagi mavjud bu kemtiklarni "unutadilar". Til o'rganishda, nutqiy malakalarni o'zlashtirishda o'quvchilarning qobiliyatları yuzaga chиqqani sari ularning o'zlariga ishonchlari ortadi. Shu shaklda til va nutq malakalari ustida ishslashning ahamiyati quyidagilarda ko'rindi:

- a) amaliy so'zlashuv malakalari rivojlanadi;
- b) tushunish va tushuntira olish qobiliyatları shakllanadi;
- v) so'z boyligi ortadi;
- g) so'zlarni to'g'ri talaffuz qilishni o'rganadilar;
- d) taqlid qilish malakasi shakllanadi;

e) yodlash malakasi ortadi.

“Narsa-buyumlar” mavzusi bo‘yicha “Nimasi bor?” o‘yini yuqorida qayd etilgan ko‘nikmalarni shakllantirishda samarali usullardan sanaladi. Bola (o‘quvchi, tarbiyalanuvchi) tanlanib, mashg‘ulot xonasidan tashqariga, ya’ni koridorga chiqib turadi. Qolganlar biror narsa (yoki kishi)ni belgilab olishadi-da, uni ichkariga chaqirishadi. Bola o‘rtoqlaridan “Nimasi bor?” deb so‘raydi. Ular nazarda tutilgan buyum (kimsa)ning belgi, xususiyatlaridan aytishadi. Besh yoki olti martagacha so‘rash imkoniyati va ikki (uch) marta taxmin qilish haqqi beriladi.

Masalan: Belgilangan narsa olma bo‘lsin.

- Nimasi bor? – Dumaloq shakli.
- Nimasi bor? – Shirin hidi.
- Nimasi bor? – Mazali ta’mi.
- Nimasi bor? – Ichida urug‘i.
- Nimasi bor? – Archiladigan po‘sti.

Ikki (uch) urinish (taxmin)da topa olgan bola “bilag‘on” bo‘ladi.

Shu o‘rinda, bolalar lug‘at boyligini oshirish maqsadida javoblardagi ayrim so‘z yoki birikmasining ma’nodoshini berib, izohlab ketish maqsadga muvofiq. Masalan, “shirin hidi” o‘rniga “xushbo‘y isi” birikmasini qo‘llash ham mumkinligini aytish o‘rinli bo‘ladi. Uyda oila a‘zolari davrasida katta-yu-kichik birgalikda bola bilan bu o‘yinning o‘ynalishi unda ta’limga nisbatan yuqori motivatsiyani uyg‘otadi. Barchaning unga e’tibori, birday olqishlashlari maksimal darajada ichki imkoniyatlarning uyg‘onishiga turtki beradi.

“Inson a‘zolari” mavzusini mustahkamlashda “Bu mening burnim” o‘yini barcha uchun qiziqarli bo‘lishi bilan e’tiborli. O‘qituvchi (tarbiyachi) bolalardan birini yoniga chaqirib, o‘yinni izohlaydi: Men burnimni ushlayman va “Bu – mening burnim”, desam, sen ham qulog‘ingni ushlab, “Bu – mening qulog‘im”, deysan. Shunday qilib, men qaysi a‘zomni ushlasam, sen unga yaqin a‘zoni ushlab, uning nomini aytasan, deydi. Avval o‘yin bir bor mashq qilinadi. So‘ng boshqa bolalar qo‘shiladi. O‘yin bog‘chalarda kichik yoshdagи bolalar, boshqa tilni (yoki davlat tilini) o‘rganayotgan bolalarga inson a‘zolarini tanishtirish va yodlatish, ularning so‘z boyligini oshirishda qo‘l keladi. Oilada yoshi bir-biriga yaqin bolalar bo‘lsa, oson va qiziqarli kichadi, lekin bola bilan oilaning har qanday a‘zosi bu o‘yinni zavqli o‘tkazishi mumkin.

Sonlar mavzusini “Bosh” nomli o‘yini orqali yengil singdiriladi va mustahkamlanadi. Tartibi shunday: bir xonali son tanlanadi. Bolalar bir sonidan boshlab bittadan sonni aytib ketma-ket sanaydilar. O‘sha son yoki uning qo‘silmalariga kelgan bola sonni emas, son o‘rniga “bosh” deydi. “Bosh”dan keyin yana sanash davom ettiriladi. Masalan, 5 soni tanlangan deylik. Sanash boshlanadi: 1-2-3-4-bosh; 6-7- 8-9-bosh; 11-12-13-14-bosh ... kabi. Yanglishgan o‘quvchi o‘yindan chiqadi. Bu o‘yinni ikki, uch yoki yettining ko‘silmalari tarzida o‘tkazish mumkin. Tanlanadigan son sinf (guruh)ning yoshi, saviyasiga ko‘ra belgilanadi. Bunda bolalar sanashni va qo‘sishni o‘rganadilar. Uyda o‘yin o‘tkazilganda oiladagilar, qarindoshlar, qo‘snilarning oilalari a‘zolari sonidan kelib chiqib ish ko‘rilsa, yanada hayotiy kechadi. Bunda kattalardan biroz ijodiy yondashuv talab qilinadi.

“Tushuntirish” mavzusini “Simsiz telefon” o‘yini bilan kichik guruhlarda ishlab tushuntirish mumkin. Guruhdagi bolalar bir nechta qatorga teng miqdorda ajratiladi. Har bir guruhning oldida bo‘lgan bolani tarbiyachi (o‘qituvchi) yoniga chaqirib, bir jumla aytadi. Tarbiyachi (o‘qituvchi)ning ishorasi bilan birinchi bolalar keyingilarning qulog‘iga o‘sha jumlanı aytadi. Shu tartibda jumla aytish tugagach, oxirgi bolalar bu jumlalarni ovoz chiqarib aytadilar. Eng oldin va eng to‘g‘ri aytgan bolalar guruhi g‘olib bo‘ladi. Bolalarning xotirasini, yodlangan so‘zlarni

mustahkamlash, nutqlarini rivojlantirish maqsadi ko‘zlanadi. Uyda bu o‘yinni qo‘shti bolalar, qarindoshlar yig‘inida kichik bolalarni uyuştirib o‘tkazsa bo‘ladi.

“Aylana” mavzusida “Yuttirmayman” o‘yini tavsiya qilinadi. Guruh (sinf)ning barcha bolalari o‘tirgan o‘rinlarida juft-juft bo‘lib olishadi (oilada ham qilsa bo‘ladi). Juftlardan biri o‘yinni shunday boshlaydi:

- Bog‘cha (maktab)dan uyga kelar ekanman, yo‘lda shakar topdim (shakar o‘rniga boshqa oziq-ovqatlar ham qo‘llanilishi mumkin). Oldiga o‘tdim, o‘ng yoniga o‘tdim, orqasiga o‘tdim, chap yoniga o‘tdim va Sanjarning og‘ziga suqdim”, - deydi. Sanjarning olidida o‘tirgan jufti darrov javob beradi:
- Yuttirmayman.

O‘yinni boshqarib turgan kishi so‘raydi:

- Nima qilasan?
- Oldiga o‘tdim, o‘ng yoniga o‘tdim, orqasiga o‘tdim, chap yoniga o‘tdim va Behzodning og‘ziga tiqaman, - deydi.

Bu gal Behzodning jufti gapiradi. O‘yin shu tartibda davom etadi. Juftini himoya qila olmagan o‘quvchi o‘yindan chiqadi.

Bolalar tomonlar (orqa, oldi, yon, o‘ng, chap) nomini o‘rganadilar, ularning lug‘at boyligi ortadi, hozirjavoblik qobiliyati shakllanadi.

Bolalar dunyoqarashini kengaytirishda “Kasblar” mavzuni o‘tishda qo‘llanadigan “O‘zingni bil” o‘yini yaxshi natija beradi. Bolalar orasidan bir o‘yinchisi tanlanadi. Unga bildirmay bir kasb, hayvon yoki o‘simlik nomi belgilanadi. O‘yinchisi istagan o‘rtog‘iga savol berib, tanlangan kasb (hayvon yoki o‘simlik)ni aniqlashga urinadi. Masalan: “Qo‘y” so‘zi berilsa, “Jonlimi, jonsizmi?”, “Qayerlarda bo‘ladi?”, “Kim unga mas‘ul?” kabi savollar beriladi. Bu o‘yin orqali bolalar biror kasb yoki hayvon haqida tushuncha oladilar, so‘z boyliklari oshadi. Oilada ota, ona yoki boshqa yaqinlari, yaxshi tanish bo‘lganlarning kasbi tanlanib savollar orqali izohlanishi hamma uchun qiziqarli bo‘ladi.

“Zid ma’noli so‘zlar” mavzusida “So‘z ma’nosining zidini top” o‘yini bolalarni zukkolikka o‘rgatadi. Bolalar soni tengligiga asoslanib, ular ikkitadan guruh bo‘lib ajratiladi. Guruhlar o‘ziga asosiy beshta va uchtadan zahiraga so‘z topib qo‘yishadi. Birinchi guruh ikkinchi guruhga birinchi so‘zini aytadi. (Ikkinchi guruhdan istagan birini turg‘izishi mumkin). O‘sha bola so‘zlarning zid ma’nolisini darrov aytishi kerak. Aytsa 1 ball oladi, aytmasa, so‘ragan guruh 1 ball oladi. Ism aytib chaqirilganda hamma bir martadan javob berishi kerak. Tanlangan so‘zlarda birxillik bo‘lsa, zahiradagi so‘zlar qo‘llanilishi lozim. Bunda so‘z ma’nolarini teranroq anglash, ularning zid ma’noli juftini bilish talab qilinadi. O‘yin oila, qarindoshlar davrasida kattalar tomonidan kichiklarga ularning zehnini charxlash maqsadida o‘tkaziladi. Uning ko‘p vaqtini olmasligi ham qulaylik tug‘diradi.

Kichik yoshdagisi bolalarning sinkovligini o‘stirishda, atrof-muhit haqidagi tasavvurlarini kengaytirishda “Hayvonlar” mavzusiga oid “Kuyla qushim, kuyla” o‘yinini tavsiya etamiz. Bunda o‘yinboshi tanlanadi. O‘rtaga chiqarilib, ko‘zlar bog‘lanadi. Yoniga kelgan do’stlaridan: “ot kabi kishna” “mushuk kabi miyovla”, “itdek vovulla” deya taqlid qilishni so‘raydi. O‘yinchisi taqlid qilgan o‘quvchini topishga harakat qiladi. Uch marta taqlid qildirganda o‘quvchini tanimasa, o‘quvchi o‘zgartiriladi, tanisa taqlid qilgan o‘quvchi o‘yinboshi bo‘ladi. Kichik yosh guruhida bu o‘yin o‘tkazilganda qaysi hayvonligini so‘rash o‘rinli. Bolalar sinchkov bo‘lsalar, ovozi berilayotgan hayvonni taniydlilar. Bu alqov bilan rag‘batlantirilishi kerak.

So‘z boyligini oshirishga yo‘naltirilgan “So‘z” mavzusida biroz g‘ayritabiiy tuyuladigan “Otam bozorga ketdi” o‘yini amaliyotda kutilgan samarani berishi kuzatiladi. Tarbiyachi (oilada kattalardan biri) o‘yinni boshlab beradi:

- Otam bozorga ketdi, behi oldi behini Sanjarga berdi, – deydi.

Sanjar o‘rnidan turib:

- Otam bozorga ketdi, igna oldi, ignani Behzodga berdi, – deydi.

Behzod o‘rnidan turib ”A” harfi bilan boshlanadigan meva, ko‘kat yoki buyum nomini aytib, o‘yinni davom ettiradi. So‘z topa olmagan, juda kech javob bergen o‘yindan chiqadi. Bu o‘yin so‘zning oxirgi harfigacha o‘ynalishi mumkin. Bolalar o‘yindan chiqib ketmaslik uchun o‘z lug‘at zahiralarini davomli ko‘paytirish harakatida bo‘ladilar.

“So‘z” mavzusidagi “Harflar bilan nom yoz” (hayvon-o‘simlik) o‘yini mакtabga tayyorlov yoshidagi bolalar uchun mos keladi. Tarbiyachi (o‘qituvchi yoki oiladagi kattalar) bolalarga:

-Aytadigan harflarimni ketma-ket yon tomoniga bu harflar bilan boshlangan ism, shahar, o‘lka, hayvon o‘simlik va buyum nomlaridan bittadan so‘z aytинг, - deydi.

Masalan:

A – Ali, Adana, Angliya, ayiq, anor albom...

D – Dilshod, Dushanbe, Daniya, delfin, do‘lana, divan...

Eng ko‘p so‘z topgan bola “bilimdon” nomini oladi.

Bu kabi o‘yinlar ta’limiy vosita sifatida quyidagi vazifalarni bajaradi:

- o‘rgatuvchi: umumo‘quv malakalarini shakllantirish;
- ijodiy qobiliyatni rivojlantirish, shu jumladan, tushunish, yangi holatlarni shakllantirish va tahlil qilish;
- rivojlantiruvchi: mantiqiy fikrlash, nutq, atrof-muhit sharoitida o‘rganish qobiliyatini rivojlantirish;
- motivatsiyali: ta’lim oluvchilarini o‘quv faoliyatiga undash, mustaqil xulosa qabul qilishlarini rag‘batlantirish;
- tarbiyalovchi: mas’uliyatlilikni, fikr almashishlikni shakllantirish.

O‘yin usullari va dars shaklidagi mashg‘ulot holatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo‘nalishlarda sodir bo‘ladi:

- didaktik maqsad ta’lim oluvchilar oldiga vazifa ko‘rinishida qo‘yiladi;
- o‘quv faoliyat o‘yin qoidalariga bo‘ysunadi;
- o‘quv material o‘yining vositasi sifatida ishlataladi;
- o‘quv faoliyatiga didaktik vazifani o‘yinga aylantiradigan musobaqa bo‘lagi kiritiladi;
- didaktik vazifani muvaffaqiyatli bajarish o‘yin natijalari bilan bog‘lanadi.

Eng asosiysi, ta’lim muassasi (MTT, mакtab) bilan oiladagi tarbiyaning uzviyligi ta’minlanadi, o‘zaro nazorat va aloqaning davomiyligi yo‘lga qo‘yiladi

### Adabiyotlar o‘yxati

1. Махмудова, Д. М. (2022). МАКТАБГАЧА КАТТА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ КИТОБХОНЛИККА ТАЙЁРЛАШ МЕТОДЛАРИ. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(6), 274-278.
2. Кадирова, Ф. Р., & Махмудова, Д. М. (2022). Мактабгача катта ёшдаги болаларни китобхонликка тайёрлаш методикасини такомиллаштириш. *PEDAGOGS jurnali*, 1(1), 10-16.

3. Makhmudova, D. M. (2023). EFFECTIVENESS OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 4(1), 177-180.
4. Махмудова, Д. М. (2022, November). СПОСОБЫ ЗАИНТЕРЕСОВАТЬ ДОШКОЛЬНИКОВ ЧТЕНИЕМ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE " THE TIME OF SCIENTIFIC PROGRESS"* (Vol. 1, No. 3, pp. 96-101).
5. Maxmudova, D., & Raxmanova, X. (2022). РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИЕ ДЕТЕЙ ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА. *Science and innovation*, 1(B7), 1213-1217.
6. Makhmudova, D. M., & Sultanova, Z. (2023, September). METHODS USED IN THE MORNING RECEPTION OF CHILDREN IN PRESCHOOL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 4, pp. 8-12).
7. Makhmudova, D. M. (2023, September). ORGANIZATION AND MANAGEMENT OF MODERN PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " SCIENTIFIC ADVANCES AND INNOVATIVE APPROACHES"* (Vol. 1, No. 3, pp. 53-57).
8. Mahmudova, D. (2023). PROBLEMS OF ARCHAEOLOGICAL TOURISM DEVELOPMENT IN NAMANGAN REGION. *American Journal of Research in Humanities and Social Sciences*, 8, 61-63.
9. Makhmudova, D. M. (2021). Technology of creating electronic book of fairy tales in preschool organizations. *Экономика и социум*, (1-1 (80)), 157-159.
10. Maxmudova, D. (2022). FORMATION OF BUSINESS ENVIRONMENT AND DIGITAL ECONOMY BASED ON DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS INFRASTRUCTURE. *Science and Innovation*, 1(8), 312-318.
11. Maxmudova, D. M. (2023, January). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI KITOBXONLIKKA TAYYORLASHDA INNAVATSIYON KITOBLARNING AXAMIYATI. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 2, pp. 629-632).
12. Махмудова, Д. М., & Омонова, Д. (2023, October). СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЗАИМОДЕЙСТВИЯ ДОУ И СЕМЬИ. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCE " INNOVATIVE TRENDS IN SCIENCE, PRACTICE AND EDUCATION"* (Vol. 2, No. 8, pp. 62-67).
13. Maxmudova, D. (2022). FOREIGN EXPERIENCE IN REGULATING AND SUPPORTING SMALL BUSINESS BY THE STATE. *Science and Innovation*, 1(7), 482-488.
14. Makhmudova, D. M. (2022). AWAKENING CHILDREN'S PRESCHOOL AGE LOVE OF READING
15. Maxmudova, D. (2022). CHALLENGES AND PROSPECTS OF SMALL BUSINESS MANAGEMENT IN THE DEVELOPMENT OF THE DIGITAL ECONOMY. *Science and Innovation*, 1(7), 451-461.
16. Makhmudova, D. M. (2022, February). ON THE PROBLEMS OF INTEGRATING DIGITAL TECHNOLOGIES INTO THE EDUCATIONAL PROCESS. In *Conference Zone* (pp. 225-226)